

YANGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA OSMON JISMLARI TALQINI

Mirxanova Gulandom Rustamovna

BuxDPI dotsenti, f.f.f.d. (PhD).

Murodova Farangiz Asliddin qizi

BuxDPI Tillar fakulteti 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15606002>

Annotatsiya. Maqolada osmon jismlarining zamonaviy she'riyatda o'r ganilishining badiiy va uslubiy jihatlari mohiyatan ochib beriladi. Shaxs ruhiyatini ifodalovchi oy, yulduz, quyosh kabi samoviy timsollarning Abdulla Oripov, Halima Ahmedova, Omon Matjon va Usmon Azim kabi bir qator shoirlar ijodi misolida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: yulduz, quyosh, tasvir, tashbeh, samoviy jismlar, inson ruhiyati.

Аннотация. В статье по существу раскрываются художественные и методические аспекты изучения небесных светил в современной поэзии. Небесные символы, такие как луна, звезды и солнце, олицетворяющие душу человека, раскрываются в творчестве ряда поэтов, среди которых Абдулла Орипов, Халима Ахмедова, Омон Матжон и Усмон Азим.

Ключевые слова: звезда, солнце, образ, метафора, небесные тела, человеческая психика.

Abstract. The article essentially reveals the artistic and methodological aspects of the study of celestial bodies in modern poetry. Celestial symbols such as the moon, star, and sun, which express the psyche of a person, are revealed on the example of the work of a number of poets such as Abdulla Oripov, Halima Ahmedova, Amon Matjon, and Usmon Azim.

Keywords: star, sun, image, metaphor, celestial bodies, human psyche.

Kirish. Badiiy adabiyotda ilohiy-ramziy tasvirlar, bugungi ijtimoiy hayot bilan bog'liq holatni zamonaviy she'riyatda tasvirlashda uchraydi. She'rlarda shaxsning ruhiyati va kechinmalarini ko'rsastish uchun samoviy jismlari: oy, quyosh, yulduz kabi osmon jismlarining badiiy adabiyotda tasvirlanishi namoyon bo'ladi. Buni ayniqsa Guljamol Asqarova, Zebo Mirzo, Mehrnoz Abbosova, Usmon Azim, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Rashid Xo'jamov kabi bir qator ijodkorlarimiz ijododa uchratishimiz mumkin. Tadqiqot obyekti va qo'llaniladigan metodlar Abdulla Oripov, Usmon Azim, Halima Ahmedova, Omon Matjon kabi ijodkorlar ijodida uchraydigan samoviy jismlar va ularning inson ruhiyatini ifodalashdagi badiiy ahamiyati tahlilga olindi.

Tadqiqot maqsadi zamonaviy o‘zbek she’riyatida inson ruhiy kechimlarining osmon jismlari talqinida berilishini o‘rganish, hamda quyosh, yulduz va oy timsollarining she’riyatda qo‘llanishini tahlil etishdan iborat. Tadqiqot metodi sifatida mavzuga oid manbalar bilan ishslash va nazariy jihatdan tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish kabi usullardan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlil. Samoviy jismlarning inson ruhiyatini ifodalovchi talqinlarini Abdulla Oripov, Usmon Azim, Halima Ahmedova, Omon Matjon kabi bir qator ijodkorlarning she’rlari misolida tahlilga olindi. “She’r shoir qalbida tug‘ilgan hayotiy tuyg‘ularni ifodalaydi va shu bilan o‘quvchi yuragini rom qiladi. Shoir o‘zi yonmasa, boshqalarni yondirolmaydi, qalb hislarida otash bo‘lmasa, boshqa qalblarga harorat berolmaydi. Bu sehrli otashsiz har qanday she’riy jimjimalardan, badiiy vositalardan, mahoratdan naf yo‘q”, - deydi Erkin Vohidov. Abdulla Oripov esa ana shunday yonib, haqiqatni she’rlarida ifodalaydigan haqiqiy iste’dodli shoirdir.

Ko‘k gumbazin bir chetida
Bo‘shliqlarga urib bosh,
Miltiraydi mitti yulduz,
Tanholidan to‘kib yosh.
Atrofida na bir yulduz
Na bulut bor, na tuman.
Yulduzlarga termulib u
Titrab turar sharsimon.
Eh, bechora, yashash nechun,
Porlamasang, kulmasang.
O‘z to‘dangdan nega uchding,
Qaytish yo‘lin bilmasang ?! [1,2006]

Mahoratlari shoir bunda tashbeh, tanosib san’atlaridan o‘rinli foydalangani ko’zga tashlanadi. “Tanholidan to‘kib yosh”, “titrab turar sharsimon”, “porlamasang, kulmasang” dagi tasvirlar insonning ruhiy holatini ifodalaydi. Bunda insonning do’stlik va kurashuvchanligi haqida so‘z boradi. Aynan mitti yulduz tasviri orqali shoir hali o‘z yo‘lini topa olmayotgan insonlarga qiyos qiladi va bu so‘zimiz isobotini mana shu jumla orqali bilishimiz mumkin:

Atrofida na bir yulduz
Na bulut bor, na tuman.
Yulduzlarga termulib u,
Titrab turar sharsimon.

Ya’ni u hali muallaq. Qaysi tomonni tanlashni bilmaydi, unda bo’shliq bor deb insonning ijtimoiy hayotdagi ichki ruhiy holatini tasvirlaydi. Usmon Azimning “SHE’RLAR” saylanmasiga kiritilgan mazkur she’rida quyosh, osmon bilan bog’liq hayotiy haqiqatning tasvirini uchratamiz.

Osmonga ham otgum tosh,
Gunohkor bo’lsa quyosh.
Gunohkor bo’lsa quyosh,
Qaytib tushmagaydir tosh.

Osmon ham bo’lib g‘anim,
Qaytib tushsa - ne g‘amim!
Bir tosh tushsa tushibdi
Tog‘day boshimga manim [2, 1995]

Bunda gunohkor, aybdor sifatida quyosh va osmonga nisbat berilyapti. Agar aybdor quyosh bo‘ladigan bo‘lsa, toshni eritib yuboradi, ya’ni ayb yopiladi. Agar quyosh toshni eritganini osmon dushman bo’lib aytmasa, mening g‘amim bo‘lmasdi.

Bilamizki, quyosh obrazi badiiy adabiyotda an’anaviy obraz bo‘lib, u ijodkorning kayfiyatini yoki davr nuqtayi nazari bilan turlicha ma’nolarni anglatib keladi. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida quyosh obrazi lirik qahramon ruhiyatining badiiy talqinida faol. Badiiy adabiyotda quyosh insonlarga moddiy nur barobarida ma’naviy nur ulashuvchi ramz sifatida talqin qilinadi. Halima Ahmedovaning “qishloqdan nima olib boray (Ukamning so‘rovi) she’ri bunga misoldir:

Kuzning oqshomida osmon xo‘mraygan,
Olisda bir yulduz titraydi dilgir.
Yechingan daraxtlar talvasasida -
Negadir quyoshdan oldim xavotir.

Bu to‘rtlik ramzlar orqali so‘zlaydi. Kuz – bu so‘nggi ilinj. Oqshom – qorong‘ulik, tushkunlik ramzi, osmon – qalb ramzi, yulduz – umid ramzi, daraxtlar – odamlar, quyosh – olisdagi qadrdon go‘sashi ekanini anglatadi.[3,2020]

Bu misralardan shuni tushunishimiz mumkinki, insonni doimi ilinj qaysidir jihatdan umidlantirib turadi, u oxirgi ilinji qolguniga qadar kurashadi, kichik qilingan harakat kelajakda katta maqsadlarga olib kelishi mumkin. Titrayotgan ana shu yulduz bir kun kelib eng yorqin nur sovchuvchiga aylanadi. Bu she’riy to‘rtlikda tashbeh, tanosib san’atlaridan shoira mahorat bilan foydalangan. Bu esa “osmon xo‘mraygan”, “bir yulduz titraydi dilgir”, “yechingan daraxtlar” kabi o‘xshatishlarni ko‘rishimiz mumkin.

Mana shunday mahurat egalaridan yana bir bu Omon Matjon hisoblanadi. U o‘z davrining mahoratli shoirlaridandir. Unda hech qaysi ijodkor ahliga o‘xshamaydigan she’rlar va talqin bor.

Omon Matjon o‘z she’rlari orqali hayotning barcha bosiqchlarini qog‘ozga emas, ko‘ngilga chizganday. Omon Matjon uslubini shunchalki o‘qib bo‘lamydi. Undagi samimiylit, she’rlaridagi o‘xshatmalaring o‘rinli qo‘llanilgani guvohi bo‘lamiz. Uning “Ochiq derazalar” kitobidan olingan “Yulduzlar” she’rida insonlar ruhiyatida o‘ychanllik bo‘lganida osmonga qarab sizga termulishadi, yo‘qotgan narsalarini yulduzlardan izlashini tasvirlaydi.

Nega kuylamaysiz, sovuq yulduzlar,

Suluv hislar sizga emasmi, pisand?

Yoki sizdan o‘zga olamdamonmi,

Istaklarim kabi emassiz xursand.

Bilaman: yo oz, yo ko‘p ulush bilan

Taqdrimimga hamroh bo‘lolmasiz hech.

Faqat o‘ychan chog‘da sizdan odamlar

Izlaydi yo‘qoytgan xayolin har kech...

...Nega kuylamaysiz, sovuq yulduzlar?! [4, 1981]

Bunda shoir yulduzlarga murojaat qiladi. Bilamizki, bir yulduzning uchishi inson umri, orzuning amalga oshishi uchun ustun vazifada ketadi. Insonlar og‘ir o‘yga tolgan vaqtga yulduzlarga tikiladi. Barcha hislarini yulduzlarga tikilib o‘tkazadi. Xalqimizda “yulduzi yulduziga mos kelibdi” degan gap bor. Ijodkor ham o‘z muhabbatini yulduzga o‘xshatadi. Samo jismlari orqali shoirning kechinmalari yoritib berilyapti. Badiiy adabiyotda ko‘proq yulduz, quyosh va oyga murojaat qilinadi. Yulduzni tumanli havoda topib bo‘lmaydi. Omon Matjonning lirik she’rlarida peyzajik obrazlardan ko‘p foydalilanadi. Keyingi misralarda esa yorga toleyini baxshida etgan ijodkor obrazini ko‘ramiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek she’riyati tezda rivojlanib qolgan jarayon emas, yillar davomida tinimsiz qilingan mehnat o‘rganish va izlanishlar samarasidir. Muxtasar aytganda, ko‘p tajribalarni o‘zida jamlagan o‘zbek she’riyati maktabidir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Мирханова, Г. (2024). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУФАТИ. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 3(1), 76-80.

2. Мирханова, Г. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУГАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 172-178.
3. Rustamovna, M. G. (2020). Rus tilshunosligida sinonim sozlar oquv lugatlarining tadrijiy rivojlanishi. *Oriental Art and Culture*, (III), 326-329.
4. Rustamovna, M. G. (2024). Linguistic Form of Terms in Explanatory Dictionaries of the Uzbek Language. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521), 2(6), 589-591.
5. Mirxanova, G. (2021). Sinonim so'zlar o'quv lug'atining megaqurilishi: Sinonim so'zlar o'quv lug'atining megaqurilishi. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, 1(1).
6. Mirxanova, G. R. (2022). Stages of Enhancement of Synonym Dictionaries. *International Journal of World Languages*, 2(1).
7. Rustamovna, M. G. (2023). Presenting synonyms in the explanatory dictionaries of the Uzbek language.
8. Mirxanova, G. R. (2021). EMERGENCE AND STAGE OF DEVELOPMENT OF FIRST SYNONYM DICTIONARIES. *Scientific reports of Bukhara State University*, 5(2), 96-105.
9. Mirxanova, G. R. (2023). SYNTACTIC ANALYSIS OF WORKS OF ART IN ELEMENTARY SCHOOL TEXTBOOKS: METHODS AND APPLICATIONS.
10. Мирханова, Г. Р., & Сафарова, О. М. (2019). УЧЕБНЫЕ СЛОВАРИ–СРЕДСТВО ОБУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ. *Вестник магистратуры*, (6-5), 41.
11. Rustamovna, M. G. Presenting synonyms in the explanatory dictionaries of the Uzbek.
12. Rustamovna, M. G. EMERGENCE AND STAGE OF DEVELOPMENT OF FIRST SYNONYM DICTIONARIES. *EMERGENCE*, 5, 24-2021.
13. DICTIONARIES, S. a teacher of the faculty of Primary education, BSU. *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY*, 96.
14. Rustamovna, M. G. (2020). THE IMPORTANCE OF LEXICOGRAPHY IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATION. В научный сборник вошли научные работы, посвященные широкому кругу современных проблем науки и образования, вопросов образовательных технологий 2020.-436 с., 165.
15. Rustamovna, M. G. (2025). KONSEPTUAL YONDASHUV ASOSIDA TERMIN TIZIMINI SHAKLLANTIRISH. *Hamkor konferensiyalar*, 1(15), 20-22.
16. Axmedova, D. (2023, May). О ‘ZBEK TILI’ KORPUSLARI SEMANTIK KENGAYTMASIDA “BOSH” LEKSEMASINING SEMANTIK IZOHLARIDAN FOYDALANISH XUSUSIDA. In «УЗБЕКСКИЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ЗДАНИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ СОЗДАНИЕ
ВОПРОСЫ" Международная научно-практическая конференция (Vol. 2, No. 2).

17. Axmedova, D., & Eshqulova, G. (2022, June). TIL BIRLIKARINI SEMANTIK TEGLASHDA SEMEMA MASALASI. In «УЗБЕКСКИЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ЗДАНИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ СОЗДАНИЕ ВОПРОСЫ" Международная научно-практическая конференция (Vol. 1, No. 1).
18. Qizi, Y. B. A., Qizi, Y. H. A., & Axmedova, D. B. (2022). 2-SINF "ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI" DARSLARIDA O'QUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(15), 51-56.
19. Qizi, S. M. A., & Axmedova, D. B. (2022). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING BILIM EGALLASHGA DOIR QARASHLARINI SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK ASARLARNING O'RNI. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(1A), 43-46.
20. Axmedova, D. (2021). СЕМАНТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА СИСТЕМА И МОДЕЛЬ. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
21. Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гурухлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.
22. Akhmedova, D. B. (2020). SET OF SEMANTIC TAGS FOR UZBEK LANGUAGE UNITS: CONSTANTS AND OPERATOR CLASSIFIER. *Theoretical & Applied Science*, (2), 177-179.
23. Bahodirovna, D. A. (2020). SEMANTIC TAG CATEGORY IN CORPUS LINGUISTICS: EXPERIENCE AND ANALYSIS. *Scientific reports of Bukhara State University*, 4(1), 152-160.
24. Bahodirovna, A. D., & Khamidjanovna, A. F. IDEOLOGICAL AND ARTISTIC ASPECTS OF SAHBO LYRICAL HERITAGE. *Zbiór artykulów naukowych recenzowanych*, 235.
25. Sharipova, M., & Azimova, N. (2025). ERTAKLARNING JANRIY BELGILARI VA MOTIVLAR TIZIMI. *Modern Science and Research*, 4(4), 1149-1158.
26. Sharipova, M., & Bakhshulloyeva, S. (2025). THE PLACE OF THE WORK OF ABDULLA ARIPOV IN THE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN LITERATURE. *Modern Science and Research*, 4(1), 388-395.
27. Sharipova, M. B. (2021). XALQ DOSTONLARIDA SOVCHILIK MAROSIMI BADIY IFODASI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA). *Scientific progress*, 2(7), 1120-1124.

28. Baxshilloyevna, S. M. (2024). ARXAIK EPOSNING SUJET STRUKTURASIDA MOTIVLAR TAHLILI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(4), 343-349.
29. Шарипова, М. Б., & Нематуллоева, М. (2024, February). КОМПЛЕКСНАЯ КОНЦЕПЦИЯ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ И ЕЕ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE "MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"-Brno, Czech* (Vol. 1, pp. 18-25).
30. Sharipova, M. (2020). ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРЯДОВ В ЭПОСЕ «АЛПОМИШ». *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 1(1).